


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI

2024

QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY MARKAZI

Respublika ilmiy-amaliy
anjumani

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING TA'LIM
SIFATI MONITORINGI NATIJALARI: MUAMMO VA
YECHIMLAR



QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING TA'LIM SIFATI MONITORINGI NATIJALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI
(QASHQADARYO VILOYATI, 2024-YIL 21-IYUN)**

**“МОНИТОРИНГ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ УЧИТЕЛЕЙ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ: ПРОБЛЕМЫ И
РЕШЕНИЯ”**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ
(КАШКАДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ, 21 ИЮНЯ 2024 ГОДА))**

**RESULTS OF TEACHING QUALITY MONITORING OF HIGH
SCHOOL TEACHERS: PROBLEMS AND SOLUTIONS**

**REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE
((KASHKADARYA REGION, JUNE 21, 2024))**

11. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект пресс 2000.– 139 с.
12. Бондаревская Е.В. Гуманистическая парадигма личностно ориентированного образования. – М.: Сургут, 2000.– 124 с.
13. Бочарникова М.С. Понятие «Коммуникативная компетенция и его становление в научной среде» (Ян Ван Эк., Л.Ф.Бахман, Д. Хаймс) // Молодой учёный.-2009.-№8.-C.130-142

TALABALARDA TA’LIM-TARBIYANI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Umumiyl pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

Telefon: +998917793882

munisxonernazarova21@gmail.com

Baxodirova Mashxura, Ikromova Muqaddas

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim-tarbiya jarayonining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar va urfodatlardan foydalanish, yurtimizda ma’nan yetuk hamda barkamol shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari borayotganligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, oliy ta’lim, o‘qituvchi, o‘quvchi, talaba, globallashuv jarayoni, tarbiya, jamoatchilik, qadriyat.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish kelajakda yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faoliyik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish, musqtaqil faoliyat yuritish qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu esa talabalarining ilmiy bilim darajasini va faolligini kengaytirishni talab qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarining darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga, mantiqiy tafakkurini o‘stirishga qaratilgan interfaol ta’lim olishlariga ko‘mak beruvchi innovatsion usullardan keng foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘. O‘qituvchilarining faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib,

ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo‘naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi ro‘llarini amalga oshirishlari kerak bo‘ladi.¹⁹

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad jahon standartlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatining xalqaro e’tirof etilishiga erishishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligi ta’kidlab o‘tilgan. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarini, hususan boshlang‘ich ta’limda zamon talablariga mos ravishda o‘qitish, ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda innonatsion yondashuvni amalga oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Barchamizga ma’lumki, mustaqillikdek oliy ne’matga erishganimizdan so‘ng, muqaddas an’ana va milliy qadriyatlarimizga tayanib yashay olish huquqiga ham erishdik. Mustaqillikdan oldin bo‘lsa, o‘zligimizni anglashimiz bilan bir qatorda an’ana va qadriyatlar asosida hayot kechirishimizga yo‘l qo‘yilmagan, vaholanki milliy urf-odat va an’analarsiz millat – millat bo‘lmaydi. O‘scha davrlarda Navro‘z, ramazon, qurbon hayiti va boshqa shu kabi bir qator muqaddas sanalgan milliy bayramlarimiz ta’qiqlangan edi. O‘tmishimiz tarixini, jumladan Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Bahouddin Naqshband, Najmuddin Kubro, Amir Temur kabi buyuk bobokalonlarimiz, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi jadidlarimizning nomlarini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlashga, umuman olganda “Tarixi bo‘lman xalqning, kelajagi ham bo‘lmaydi” degan fikr asosida o‘zbek millati o‘tmishini tarix zarvaraqlaridan butunlay o‘chirib tashlashga harakat qilingan edi.

Har qanday davlat birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati hamda ma’naviyati bilan kuchlidir. Bunda bevosita qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarmizni o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirish, ularni milliy ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikdan keyin bir qator bayramlarni nishonlash yurtimizda an’anaga aylanishi millatimiz tarixida yangi davrning boshlanishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanishdir. Ayni paytda, yurtimizda ma’nан yetuk hamda barkamol shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu xususda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy

¹⁹ “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr.

bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko‘p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o‘ylab, el-yurtimizning xalqimizning yorug‘ kelajagini ko‘zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo‘ymoqdamiz. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”, - degan jumlalarini keltirib o‘tish o‘rinlidir. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyat va an’analarning ahamiyati katta bo‘lib, ular tarbiya jarayonida eng ta’sirchan qurol vazifasini bajaradi desak noo‘rin bo‘lmaydi.

Bilamizki, jamiyat yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmasdan yoxud mustahkamlamasdan turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi, shuningdek har bir davlat o‘sib kelayotgan kelajak avlodni o‘z milliy qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari negizida tarbiyalashi uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, milliy o‘zlikni anglash bo‘yicha so‘ralgan 46,6 foiz yoshlar xalqning urf - odatlari va an’analaringa, 28,9 foizi O‘zbekistonning milliy mustaqilligiga, 28,4 foizi o‘z xalqining boy tarixiga, 21,7 foizi ona tili va milliy madaniyatiga, 19,5 foizi o‘z millatining ma’naviy o‘ziga xosligi, 16,6 foizi o‘tmish avlodlarning buyuk merosiga tayanish muhim ahamiyat ega ekanini bildirishgan. Bundan shuni anglash mumkinki, bugungi kun yoshlari o‘z xalqining tarixi va an’analari, milliy madaniyati, avlodlar o‘rtasidagi aloqa, o‘zlikni anglash va o‘ziga xoslikni muhim omil sifatida baholaydi.

Biz axborot texnologiyalari davrida yashayapmiz va doimiy tarzda internetdan, axborot tizimlaridan foydalanamiz, turli xil ko‘rsatuv, reklama va kinolar tomosha qilamiz. Buning natijasida ma’naviy hayotimizga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turliqadriyatlarning hayotimizga, turmush tarzimizga kirib kelishiga o‘zimiz imkon beramiz, o‘zimiz sharoit yaratamiz. Mustaqilligimiz sharofati bilan qadriyatlarmizni qayta tiklash jarayonini amalga oshirayotganimizda o‘zga millat urf-odatlari, an’analari va kiyinish madaniyatini qabul qilishga intilish, boy milliy ma’naviyatimizga salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadı. Bu holatda albatta o‘sib kelayotgan yosh avlodga qadriyatlarni bir-biridan farqlash, internet tarmoqlaridan aql bilan foydalanish kabi holatlar bo‘yicha tushunchalar berilgan bo‘lishi kerak. Zero, yoshlarimiz globallashuv jarayonida kechayotgan voqeа hodisalarini to‘g‘ri talqin qila olishi, ularga to‘g‘ri munosabat bildira olishi muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda oliy ta’lim kelajak avlod sifatli ta’lim olishi uchun bugungi kun pedagogini kreativ fikrli, tashabbuskor, ilmli, salohiyatli mutaxassis kadr qilib jamiyatga yetkazib bersagina bu mutaxassislar tar’lim dargohlarida nazariy olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq etgan holda sifatli bilim bersa -inson farovonligiga,

jamiyatda ilmiy salohiyatlari kadrlar salmog‘ini oshishiga, va albatta xalqning ma’naviyati yanada yuksalishi, hayoti farovonlashishiga munosib xissa qo‘sha olgan bo‘ladi²⁰.

Xulosa o‘rnida milliy-ozodlik harakati fidoyilari safida faol harakat qilgan Abdulla Avloniy bobomizning: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, - degan jumlalarini keltirib o‘tishni joizdir. Darhaqiqat, bola yosh nihol va qayoqqa egsa shu tomonga qarab o‘saveradi. Yoshlarimizga berilgan, berilayotgan va beradigan tarbiya yurtimiz kelajagi hamda taqdirini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr.
2. Ernazarova, M. J. (2023). Using didactic games to improve the intellectual abilities of primary school students. Inson farovonligini o‘rganishda fanlararo yondashuv, 307-309.
3. Эрназарова, М. Ж. (2023). Качественные знания – основа благополучия человека. Inson farovonligini o‘rganishda fanlararo yondashuv. 304-307.
4. Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna ”Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish” magistrlik dissertatsiyasi 2023-yil.
4. I.Alqarov, R.Mamatqulova, X.Norqulov. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogiikasi. -T .: «Fan va texnologiya», 2009.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR.

Ernazarova M.J.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Xursanova O‘. B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti 2-bosqich talabasi

Tayanch so’zlar: o‘qituvchi, pedagogika, kompetensiya, bilim, kompetentlik, ko‘nikma, ma’naviyat, malaka, bilim, tarbiya, odob-axloq, yondashuv.

²⁰ Качественные знания – основа благополучия человека. Ernazarova M.J ‘Inson farovonligini o‘rganishda fanlararo yondashuv’ xalqaro ilmiy konferensiya materiallari I QISM Toshkent – 2023

N.SH. RUZMATOVA S. JALILOVA	MOTIVATSIYA MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILLARI	295
O.B.OZODQULOV S. KOMILJONOVA Z. AVLOQULOVA	O'QUV JARRAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA BUYUK ALLOMALARIMIZNING G'OYA VA FIKRLARINING TUTGAN O'RNI	299
O.B.OZODQULOV R. SHODIYEVA M. YULDASHOVA	BUGUNGI KUNDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI VA UNI YUKSALTIRISH OMILLARI	304
O.B.OZODQULOV G. BAHRIDINNOVA N. MIRZAUSMONOVA	PROEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH JARAYONIDA SHAXSNING PSIXODIAGNOSTIKASI	308
X.K.RAHIMOVA K. MAL'ZEVA	BNEDRHENIE CIFFROVYX TEKHNOLOGIJ V OBRAZOVATEL'NYY PROTSESS	313
X.K.RAHIMOVA E. LUKYANOVA K. CHIPURIN B. YOUNUSOVA	VOZMOZHNOSTI POVYSHENIA KACHESTVA OBRAZOVANIJA NA OSNOVE TEKHNOLOGII MEDIAOBRAZOVANIJA	316
SH.R.SAMAROVA A. ABDURAXMONOV F. AXMADOVA A. XOLMURODOVA	DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING O'ZIGA XOSLIGI	320
S.N.AMANGELDIYEV Z. JABORBERGANOVA	MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHNING INNOVATSION MUHITDAGI METODIKASI	323
B.N.TURAKULOV SH. KABULOVA S. MAMARAJABOVA Z. SAMINJANOVA	INSON QALBI EMOTSIANAL INTELLEKTNING YORQIN KUZGUSI	328
N.B.XUSANOVA Z. JABORBERGANOVA D. MUSINOVA SH. OLLOBERGANOVA	KICHIK MAKTAB YOSHIDA O'QUVCHILARNI MEHNATSEVARLIKKA O'RGATISH, MILLIY RUHDA SHAKLLANTIRISH	333
N.B.XUSANOVA S. TURG'UNOVA F. SHONAZAROVA	BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	336
G.MIRZARAHAMOVA M. RAXIMOVA L. BAENOVA	PONNAVATEL'NAYA DEJATEL'NOST DETEY S DEFEKTAMI RECHI	338
G.MIRZARAHAMOVA M. PARDAEVA M. RAXIMOVA	HUTQ FAOLIYATI BA ULARNING XUSUSIYATLARI	341
C.M. YULDASHOVA O'. MUXAMMADIEV SH. O'NAROVA	PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIK XUSUSIYATLARI	347
C.M. YULDASHOVA T. SADULLAYEVA M. PARDABOYEVA	TASNIFFLASH USULLARI BA TALABALARNING O'QUV NATIJALARINI BASHORAT QILISH	349
C.M. YULDASHOVA J. TO'XTAYEVA A. SULEYMANOVA	KASBIY SHAKLLANISH VA KASBIY FAOLIYATNI TADQIQ ETISH PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	352
D.R.ODILOVA	MTT XODIMLARI KOMPETENTLIGINI O'RGANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	355
M.J.ERNAZAROVA M. M.J.ERNAZAROVA M. IKROMOVA	TALABALARDA TA'LIM-TARBIYANI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	361
M.J.ERNAZAROVA O.B. XURSANOVA	BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	364